

LOTIN TILIDA SIFATLARNI O'RGANISHDA YUZAGA KELADIGAN GRAMMATIK MUAMMOLAR VA ULARNI TUSHUNISH

Sunnatullayeva Arjumanbegim

Sromatologiya fakulteti 1- bosqich talabasi

Rahbar: **Raxmatova Sunbula**

Samarqand Zarmed universiteti Tillar kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada lotin tilida sifatlarni o'rganishda yuzaga keladigan grammatik muammolar va ularni tushunish masalalari tahlil qilinadi. Lotin tili tibbiyot ta'limida muhim o'rin egallaydi va ko'plab ilmiy atamalar ushbu tilda shakllangan. Tadqiqot davomida lotin tilida sifatlarning jinsi, soni va kelishikka qarab o'zgarishi o'zbek tilida uchramasligi sababli o'quvchilarga qanday qiyinchiliklar tug'dirishi tahlil qilinadi. Maqolada lotin tilidagi grammatik tizimni yaxshiroq tushunish uchun zarur bo'lgan lingvistik va metodologik yondashuvlar bayon etiladi. Shuningdek, tibbiy terminologiyani o'zlashtirish jarayonida sifatlarning turlanish qoidalariga rioya qilish muhimligi ta'kidlanadi.

Kalit so'zlar: lotin tili, sifatlarning turlanishi, tibbiy terminologiya, grammatik qiyinchiliklar, lingvistik xususiyatlar, tibbiy ta'lim, o'quv metodikasi, fonologik tahlil, tibbiy fanlar, til o'rganish strategiyalari.

Lotin tili tibbiy ta'limida o'ziga xos alohida o'rin ega hisoblanadi va ko'plab tibbiy atamalarni o'rganish va tushunish uchun asosiy vosita bo'lib xizmat qiladi. Deyarli barcha zamonaviy tibbiyot sohasiga oid amaliyot hamda ilm-fan lotin tilining lug'atiga asoslanadi, chunki lotin tili tibbiyot va biologiyaning xalqaro muloqot tilidir. Bundan tashqari, Qadimgi Rim va O'rta asrlarda yashagan olimlar, faylasuflar va shifokorlar lotin tilida ijod qilganligi sababli tibbiyot lug'atining shakllanishiga asos bo'ldi. Rim imperiyasi davrida lotin tili davlat boshqaruvi, fan va madaniyat va tibbiyot tili bo'lgan. Tibbiyot lotin tilida rivojlandi va aynan lotin tili ilmiy risolalar, tibbiy matnlar, retseptlar va operatsiyalar tiliga aylandi.

Rim imperiyasi qulagandan keyin va o'rta asrlarda milliy tillar rivojlanishiga qaramay, lotin tili ta'lim muassasalari va universitetlarda qo'llanila boshlandi. O'sha davr shifokorlari, anatomistlari va faylasuflari qaysi davlatdan bo'lishidan qat'iy nazar, o'z tadqiqotlarini yozib olish va hamkasblari bilan muloqot qilish uchun lotin tilidan foydalanganlar. Hozirgi kunga qadar anatomiya, fiziologiya, patologiya va terapiya bilan bog'liq ko'plab tibbiy atamalar lotin tilidan kelib chiqqan. Bu nafaqat asosiy tibbiy tushunchalarga, balki butun dunyoda qo'llaniladigan ko'plab maxsus atamalarga ham tegishlidir. Masalan, inson tanasining barcha anatomik tuzilmalari lotin tilida tasvirlangan: *Cranium* - bosh suyagi, *cor* – yurak, *os* – suyak.

Bu atamalarning har biri shunchaki so'z emas, balki til va madaniy tafovutlar bo'lishiga qaramay, butun dunyo shifokorlari va olimlarini birlashtirgan ilmiy tushunchadir. Tibbiyot terminologiyasi lotincha ildizlar, prefikslar va qo'shimchalardan iborat bo'lib, bu turli hodisa va jarayonlarni aniq va ravon belgilash imkonini beradi. Misol uchun, "*gypotensia*" atamasi lotincha "*tensio*" (kuchlanish) ildiz va "*gypo*-" prefiksidan (normadan past) iborat bo'lib, bu qon bosimining pastligi ekanligi haqida aniq tasavvur beradi. Demak, tibbiyot talabasi o'zining kelajakdagi kasbida qo'llaydigan barcha lotin tibbiy atamalarni mustahkam bilishi maqsadga muvofiqdir, chunki lotin tili nafaqat umumiy tibbiyot fanlarida, balki tibbiyotning anatomiya,

farmakologiya, jarrohlik va boshqalar kabi maxsus sohalarida ham faol qo'llaniladi. Bu sohalarida organlar, jarayonlar va kasalliklarni aniq tavsiflash uchun lotin terminologiyasi zarur.

Shunday qilib, tibbiyot talabasi lotin terminologiyasini o'rganishi davomida qanday qiyinchiliklarga duch keladi degan savol tug'ulishi tabiiy. Bu savolga javobni ona tilisi o'zbek tili bo'lgan talabalar uchun lotin tilidagi sifatlarni o'rganish bir qator grammatik xususiyatlari tufayli jiddiy qiyinchilik yuzaga kelishini ko'rib chiqish bilan yoritib berish bilan amalga oshirish mumkin. Lotin tilidagi sifatlar jinsi, soni va kelishikka qarab o'zgaradi, bu esa ularni tushunish va qo'llashni o'zbek tiliga qaraganda ancha qiyinlashtiradi, chunki o'zbek tilida bunday o'zgarishlar deyarli uchramaydi. Lotin tilida sifatlar jins (rod-mujskoy, jenskiy va sredniy), son (birlik va ko'plik) va kelishikda (6 ta) otlar bilan moslashadi. Demak, sifatning shakli shu turkumlarga qarab o'zgaradi.

Masalan: *longus* (uzun) – *masculinum, Nominativus, singularis*
longa (uzun) - *femininum, Nominativus, singularis*
longum (uzun) - *neutrum, Nominativus, singularis*
longi (uzun) – *masculinum, Nominativus, pluralis*

O'zbek talabalari uchun qiyinchilik shundan iboratki, o'zbek tilida sifatlarning turlanishining yo'qligi va lotin tilidagi kabi jins va son farqlari mavjud emasligida. Lotin tilida sifatlarning otlar bilan jins, son va kelishik bo'yicha mos kelishi kerak. Ushbu shartga majburiy va qat'iy amal qilinishi kerak. Masalan: *Musculus longus capitis*-boshning uzun muskuli

Vena palatina externa-tashqi tanglayga oid vena
Cavum profundum-chuqur bo'shliq

Ushbu berilgan misollardan ko'rinib turibdiki, *musculus, i, m* bo'lganligi uchun *longus, a, um* sifati bevosita mujskoy rodga qo'yilgan. *Vena, ae, f* jenskiy rodga bo'lganligi uchun *palatinus, a, um* va *externus, a, um* dan *palatina, externa* moslashtirilgan. So'nggi misolga keladigan bo'lsak ushbu misolda ot sredniy rodga kelgan shu sababli sifat ot bilan bevosita moslashgan ya'ni *profundus, a, um* dan *profundum* qo'yilgan. Bundan tashqari lotin tilida sifatlar ikki guruhga bo'linadi va ularning uchta turlanishi mavjud bo'lib, ularning birinchi va ikkinchi turlanishi (-us (-er), -a, -um=*longus, longa, longum*) birinchi guruhga va uchinchi turlanishi (-is, -e= *frontalis, frontale*) ikkinchi guruhga kiradi. Bunday o'zgarishlarning o'zbek tilida yo'qligiga ko'nikib qolgan talabalar uchun bu qiyin bo'lishi mumkin. Tibbiyot atamaları, ayniqsa, anatomik va patologik atamalarda sifat grammatik qoidalarga aniq rioya qilinishini talab qiladi. Lotin tilida sifatlarning kelishik, jins va songa ko'ra o'zgarishi talabalardan diqqatli bo'lishni, grammatikaning qoidalarini chuqur tushunishi lozimligini talab qiladi. Bu kabi turlanish tizimi mavjud bo'lmagan o'zbek tilida talabalarga lotincha sifatlarni o'rganishidagi qiyinchiliklar ularning o'zgarishlarni idrok etishga yetarlicha tayyorgarlik ko'rmaganligi bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

Shunday qilib, o'zbek tilida so'zlashuvchi tibbiyot talabalari uchun lotin tilidagi sifatlarni o'rganish katta qiyinchilik tug'diradi, chunki lotin tili o'zbek tilidan farq qiladi, murakkab kelishik va turlanish tizimiga ega. Ushbu qiyinchiliklarni yengish grammatikani o'rganishga tizimli yondashuv, jins, son va holat bo'yicha sifatlarning o'zgarishiga diqqat bilan e'tibor berish, shuningdek, tibbiy terminologiyadan foydalanish amaliyoti yordamida mumkin. Lotin tili nafaqat tibbiy atamalarning asosi, balki tibbiy muhitda to'g'ri muloqot qilishning muhim vositasi ekanligini tushunish muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. X.T. Umarov, Lotin tili va tibbiy-farmatsevtik terminologiya asoslari, Darslik, Toshkent, “Tamaddun”, 2015 yil.
2. “Лотин тили”, Л.У.Ходжаева, Дарслик, Тошкент, Давлат илмий нашриёти, 2005й.
3. Rakhmatova, S. A. (2020). THE TEACHER’S SKILL IN THE EFFECTIVE ORGANIZATION OF THE EDUCATIONAL PROCESS IN THE LESSON. *Theoretical & Applied Science*, (6), 725-727.
4. Ahmadjonovna, R. S., Genjibaevna, A. P., Saydullaevna, N. N., Atakulovna, R. N., & Sadulayevna, I. D. (2021). The Teacher's Role in the Effective Organization of the Lesson Process in Foreign Language. *Annals of the Romanian Society for Cell Biology*, 25(2), 3072-3078.